

BAXTIYOR IBROHIMOV, ISMOIL OXUNOV,
MUZAFFAR XO'JAYEV

ARAB TILI

To'ldirilgan ikkinchi nashri

*Arab tili chet tili sifatida o'qitiladigan maktab va litseylarda birinchi,
maxsus maktablarda esa, ikkinchi yil uchun darslik.*

«Toshkent islom universiteti»
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent— 2008

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining
darsliklarni qayta ko‘rish maxsus komissiyasi ma’qullagan.

Aziz o‘quvchilar!

Darslikda arab tiliga xos tovushlar transkripsiyada Sizga ma’lum harflar ustiga yoki ostiga qo‘shimcha belgilar qo‘yish orqali ko‘rsatiladi. Ularning talaffuzida quyidagilarga e’tibor berishingiz kerak.

[ā, ī, ū]lar cho‘ziq unlilar bo‘lib, qisqa [a, i, u]larga qaraganda ancha cho‘ziq talaffuz qilinishi kerak.

[š va ž]lar talaffuzida tilning uchi biroz tishlangan holda bo‘lishi kerak.

[š, đ, ț, ž]lar talaffuzi to‘g‘ri bo‘lishi uchun tilning o‘rta qismini tepa tanglay tomonga ko‘tarib turib, kuch bilan [s, d, t, z] deyish kerak.

O‘zbek tilidagi [h] tovushini talaffuz qilayotganda tomoq yana ko‘proq qisilsa, arab tilidagi [ħ] tovushi hosil bo‘ladi. Bunda tomoq qirilib ketmasligi kerak.

Halqumda hosil bo‘ladigan [h] tovushi o‘rnida tomoq birdan qattiq qisib, qo‘yib yuborilsa, tepaga qaragan vergul « ‘ » shaklida ifodalangan «‘ayn» tovushi chiqadi.


« ‘ » shaklida ko‘rsatilgan «hamza» esa, o‘zbek tilidagi «mas’ul», «mash’um» kabi so‘zlardagi «’» tutuq belgisi singari talaffuz qilinadi.


Arab tiliga xos tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishingizda ustozingizga taqlid qiling va bu tovushlar o‘rni ko‘rsatilgan rasmlardan foydalaning.


Darslikda sherlarning badiiy tarjimai, hikmatli so‘zlarning o‘zbekcha muqobili berilgan.

Shartli belgilar:


 E’tibor bering!

 Javob bering!

 Ajratib o‘qing!


 Qo‘shib o‘qing!

 Husnixat

 Lug‘at tuzing!

 Birga bajaring!

 *Diktant*: Diktant yozing!

 Test-sinov

BIRINCHI DARS 'AT-TAḤIYYĀ ◊ SALOM-ALIK



Ustozingizga taqlid qilgan holda o'qing va yod oling.



tilmíz

-'as-salāmu 'alāykum,
yā 'ustāz!
-va 'alāykumu-s-salām,
yā bunāyya!



'ustāz



tilmīza

- 'as-salāmu 'alaykum,
yā 'ustāza!
-va 'alaykumu-s-salām,
yā bintī!



'ustāza



javāhir

- kāyfa ḥāluk,
yā javāhir?
- shúkran, yā yasmīna.
Yoki - 'al-ḥāmdu lillāh,
yā yasmīna.



yasmīna

1. Quyidagi soʻzlarni ustozingiz qanday oʻqiyotganiga, ayniqsa 'a, ā, ī, z tovushlarining talaffuziga diqqat qiling.

'as-salāmu 'alaykum – sizga tinchlik, xotirjamlik tilayman
yā 'ustāz – ey, ustoz
yā bunayya – ey, oʻgʻlim
yā bintī – ey, qizim
tilmīz – oʻquvchi bola
tilmīza – oʻquvchi qiz
kāyfa ḥāluk? – ahvollaring qanday?
shukran – rahmat
'al-ḥāmdu lillāh – Xudoga shukr



O'quvchilar bir-birlari bilan peshingacha:

– şabāḥa - l - xāyr, yā Karīm!

– şabāḥa - n - nūr, yā Salīm!, kechga tomon esa:

– masā'a - l - xāyr yā Karīm!

– masā'a - n - nūr, yā Salīm! tarzida salomlashsa ham bo'ladi.

Bu «Xayrli tong!» yoki «Xayrli kech!» ma'nolarini anglatadi.

USTOZIM, SIZGA VA'DAM

1. Ota-onamga mehribon bo'laman, nasihatlariga quloq solaman, ularning so'zlaridan chiqmayman.

2. Ularni o'rimdan turib kutib olaman, birga o'tirganda odob saqlayman, ularga aslo qattiq gapirmayman.

3. Imkoni boricha ularga ma'qul ishlarni qilaman, ularning qo'llaridan yumushlarini olaman.

4. Meni koyishganlarida ham qo'pol so'zlab, dillarini og'ritmayman, chunki ular faqat mening foydamni ko'zlab gapiradilar.

5. Ularga ko'zim tushishi bilan salomlashishni, uyquga yotishlaridan oldin yaxshi tilaklar tilashni unutmayman.

6. Ota-onam sog'-salomat bo'lishlari, uzoq umr ko'rishlari uchun, ularni hafa qiladigan ishlarga aslo qo'l urmayman.

7. Ularning aziyat chekishlariga sababchi bo'lib qolmaslikka harakat qilaman.

8. O'zgalarning ota-onalarini behurmat qilmayman, toki ular ham mening ota-onamni behurmat qilishmasin...